

**BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJETDAN TASHQARI
MABLAG'LARNI SHAKLLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR:
O'RGANISH VA QO'LLASH IMKONIYATLARI**

Ro'ziqulov Miraziz Abdulazizovich

Bank-Moliya Akademiyasi magistratura talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada rivojlangan mamlakatlar – AQSh, Germaniya va Janubiy Koreya tajribasi asosida budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish mexanizmlari o'rganilgan. Har bir davlatda qo'llanilayotgan moliyaviy manbalarni jalb qilish usullari, huquqiy asoslar, ochiqlik, raqamlashtirish darajasi va jamoatchilik ishtiroki darajasiga e'tibor qaratilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, ushbu mamlakatlar tajribasidan O'zbekiston sharoitiga moslashtiriladigan samarali yondashuvlar aniqlangan va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: budjet tashkiloti, budjetdan tashqari mablag'lar, xalqaro tajriba, shaffoflik, raqamli tizim, audit, davlat-xususiy sheriklik.

Kirish

Budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularning mustaqil faoliyat yuritishini qo'llab-quvvatlash va davlat moliyasi tizimidagi bosimni kamaytirish bugungi davrda dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, ijtimoiy soha obyektlari – oliy ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport muassasalari moliyaviy jihatdan faqat davlat byudjeti hisobiga emas, balki qo'shimcha manbalar hisobidan ham moliyalashtirilishi zarurligi tobora ortib bormoqda. Bunday qo'shimcha manbalar ichida budjetdan tashqari mablag'lar muhim o'rinni egallaydi.

Budjetdan tashqari mablag'lar – bu byudjet tashkilotlari tomonidan bevosita ularning faoliyati natijasida shakllantiriladigan, davlat byudjetidan ajratiladigan asosiy mablag'lardan mustaqil ravishda hisobga olinadigan va sarflanadigan resurslardir. Ushbu mablag'lar kontrakt to'lovlari, grantlar, xayriya mablag'lari, to'lovli xizmatlar va boshqa manbalar hisobidan shakllanadi. Ular muassasalarning o'z tashabbuslari va tashqi resurslar evaziga moliyaviy mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda rivojlangan davlatlar, jumladan AQSh, Germaniya va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, budjetdan tashqari mablag'lar orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, xizmatlar sifatini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va jamoatchilik ishonchini kuchaytirish mumkin. Jumladan, World Bank (2021) va OECD (2022) tadqiqotlarida ushbu mablag'lar davlat xarajatlarini optimallashtirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va raqamli boshqaruv tizimlarini moliyalashtirish vositasi sifatida tavsiflanadi. Germaniyada budjetdan tashqari jamg'armalar "Sondervermögen" shaklida yuritilib, ularning har bir xarajati samaradorlik hisobotlari bilan asoslanadi. AQShda esa USAspending.gov platformasi orqali barcha federal mablag'larning sarflanishi jamoatchilik nazoratiga taqdim etiladi.

O'zbekiston tajribasida esa budjetdan tashqari mablag'lar asosan oliy ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarida shakllanmoqda. 2023-yilda yirik OTMlarda budjetdan tashqari tushumlar 100–150 mlrd so'mgacha yetgan. Biroq bu mablag'larning ko'pchilik qismi ustama va mukofotlarga yo'naltirilayotgani, infratuzilmani rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar yoki raqamli texnologiyalarni joriy etishga kam e'tibor qaratilayotgani kuzatilmoqda. Bundan tashqari, mablag'larning

shaffofligi, hisobdorlik tizimi va audit nazorati zaifligi tufayli ularning real samaradorligini baholash qiyinlashmoqda.

Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, ushbu mavzu bo'yicha O'zbekistonda ilmiy izlanishlar yetarlicha boshlang'ich bosqichda. Ostonqulov A. (2021) oliy ta'lim muassasalarida budjetdan tashqari mablag'larning boshqaruviga doir nazariy yondashuvlarni bayon qilgan bo'lsa, Qodirova M. (2022) sog'liqni saqlash tizimidagi pullik xizmatlarning iqtisodiy samaradorligini o'rgangan. Xalqaro adabiyotlarda esa budjetdan tashqari mablag'lar strategik moliyaviy vosita sifatida qaralib, ular ustidan shaffof nazorat va raqamlashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi (Burkov V.N., 2020; Korean MOEF, 2023).

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqola budjetdan tashqari mablag'lar shakllanishining xalqaro tajribasini o'rganish, ularning moliyaviy boshqaruvdagi o'rnini aniqlash va O'zbekiston amaliyoti uchun dolzarb bo'lgan ilg'or yondashuvlarni taklif etishga qaratilgan. Maqola davomida AQSh, Germaniya va Janubiy Koreya misolida bu jarayonlarning samarador jihatlari ko'rib chiqiladi va milliy tizimga moslashtiriladigan amaliy mexanizmlar ishlab chiqiladi.

Natijalar

Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlangan davlatlarda budjetdan tashqari mablag'larning shakllanishi va boshqaruvi muayyan strategik yondashuvlarga asoslangan bo'lib, bu tajriba O'zbekiston sharoitida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, AQSh, Germaniya va Janubiy Koreya misolida o'rganilgan amaliyotlar asosida quyidagi asosiy jihatlar aniqlab olindi.

Birinchidan, mablag' shakllanishining asosiy manbalari diversifikatsiyalangan bo'lib, grantlar, xususiy sektor sherikligi, xizmatlar

ko'rsatish, investitsiyalar va patentlar asosiy rol o'ynaydi. AQShda universitetlar va sog'liqni saqlash muassasalari byudjetdan tashqari mablag'larni asosan federal grantlar, loyihalar va konsalting xizmatlari hisobiga shakllantiradi. Masalan, 2022-yilda Harvard universiteti tomonidan grant va xususiy mablag'lar hisobidan 1,4 milliard dollar tushum shakllantirilgan va bu umumiy moliyalashtirishning 55 foizini tashkil qilgan.

Ikkinchidan, Germaniyada universitetlar "Sondervmögen" (maxsus jamg'armalar) orqali davlat va nodavlat grantlarini jalb qiladi. 2023-yil yakunlariga ko'ra, Myunxen Texnika universiteti byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga o'z ilmiy-tadqiqot faoliyatining 60 foizini moliyalashtirgan. Mablag'larning asosiy qismi xalqaro ilmiy loyihalar, yirik xususiy kompaniyalar bilan hamkorlik va infratuzilma modernizatsiyasi hisobiga shakllangan.

Uchinchidan, Janubiy Koreyada sog'liqni saqlash va ta'lim tashkilotlari davlat buyurtmalari, korporativ grantlar va xizmatlar ko'rsatish evaziga tushum shakllantiradi. Mamlakatda dBrain (Digital Budget and Accounting System) tizimi orqali mablag'lar shakllanishi va ulardan foydalanish real vaqt rejimida raqamli nazorat ostida bo'ladi. 2023-yilda Seul Milliy universiteti raqamli tizimlar orqali 87 million dollar miqdorida budjetdan tashqari tushumni shakllantirgan, shundan 20% – konsalting xizmatlari, 15% – ijaralar, 40% – grantlar va 25% – boshqa manbalardan iborat bo'lgan.

To'rtinchidan, barcha tahlil qilingan davlatlarda ochiqlik va hisobdorlikka katta e'tibor qaratiladi. AQShda USAspending.gov portali orqali mablag'lar to'liq shaffof tarzda jamoatchilikka taqdim etiladi. Germaniyada Transparenzportal.de orqali har yili davlat grantlari va sarflar bo'yicha hisobotlar joylashtiriladi.

Koreyada esa Open Fiscal Data portali fuqarolarga real vaqt rejimida moliyaviy holat bo'yicha ma'lumot olish imkonini beradi.

Beshinchidan, samaradorlik baholovchi mezonlar keng qo'llaniladi. Germaniyada har bir grant doirasida "Effizienzbericht" – samaradorlik hisobotlari tayyorlanadi, unda mablag' natijasi va kutilgan ijtimoiy foyda aniq ko'rsatiladi. AQShda har bir federal loyiha "performance metrics" asosida baholanadi, bu orqali foydalilik ko'effitsienti, xarajat/foйда nisbatlari va auditorlik xulosalari aniqlanadi.

Ushbu natijalar O'zbekiston uchun quyidagi jihatlarni o'rganish zarurligini ko'rsatadi:

1. manbalarni diversifikatsiyalash (xususan, grantlar va xususiy mablag'lar);
2. shaffoflik va ochiqlikni ta'minlovchi portallarni yaratish;
3. mablag'lardan foydalanishda samaradorlik mezonlarini joriy etish;
4. raqamli monitoring tizimlarini joriy etish;
5. jamoatchilik ishtirokini kengaytirish.

Natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, xalqaro tajriba asosida O'zbekiston budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'larni shakllantirishni yangi bosqichga olib chiqish uchun barcha tashkiliy, texnologik va institutsional imkoniyatlar mavjud.

Muhokama

O'rganilgan xalqaro tajribalar asosida shuni aytish mumkinki, budjetdan tashqari mablag'larni shakllantirishda har bir davlat o'zining iqtisodiy siyosati, institutsional mexanizmlari va moliyaviy boshqaruv tizimiga mos yondashuvlarni qo'llagan. Shu bilan birga, ularning umumiy jihati shundan iboratki, ular budjetdan

tashqari mablag'larni nafaqat qo'shimcha daromad manbasi sifatida, balki rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi sifatida ko'radi.

AQSh misolida federal darajadagi grantlar, tadqiqot loyihalari, davlat-xususiy sheriklik asosidagi kontraktlar orqali universitetlar, ilmiy muassasalar va sog'liqni saqlash tashkilotlari o'z faoliyatlarini barqaror moliyalashtirib kelmoqda. Ularning asosiy kuchli jihati – ochiqlik va shaffoflikdir. Har bir mablag'ning harakati Kongress va jamoatchilik nazoratida bo'lib, USAspending.gov portali orqali millionlab foydalanuvchilar ushbu jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatishi mumkin.

Germaniya amaliyotida esa samaradorlik tamoyili ustuvor o'ringa ega. Mablag'larni shakllantirishda davlat grantlari va yirik kompaniyalar bilan hamkorlik orqali moliyaviy resurslar jalb etiladi, biroq ular faqat samaradorlik asosida taqsimlanadi. Universitetlar yillik samaradorlik hisobotlarini tayyorlaydi va natijalari asosida moliyalashtirish hajmi belgilanadi.

Janubiy Koreyada esa raqamlashtirish va integratsiyalashgan boshqaruv tizimlari yuqori darajada joriy etilgan. dBrain tizimi orqali barcha byudjet va budjetdan tashqari mablag'lar yagona platformada yuritiladi. Bu tizim korrupsiyaviy xatarlarni kamaytiradi, nazoratni kuchaytiradi va jamoatchilik ishonchini oshiradi.

O'zbekiston sharoitida esa, mavjud budjetdan tashqari mablag'lar ko'proq pullik xizmatlar va kontrakt asosida shakllanmoqda. Mablag'lar ustidan nazorat mexanizmlari zaif, ochiqlik yetarli darajada ta'minlanmagan, strategik moliyaviy rejalashtirish mavjud emas. Mablag'larning aksariyati joriy xarajatlarga, xususan ustama va mukofotlarga yo'naltiriladi. Xalqaro tajriba asosida shuni ta'kidlash

kerakki, ushbu tizimni samarali boshqarish uchun birinchi navbatda diversifikatsiya, ochiqlik va samaradorlikka asoslangan yondashuvlar joriy qilinishi lozim.

Xulosa

Tadqiqotlar va tahlillar asosida aniqlanishicha, budjetdan tashqari mablag'lar zamonaviy moliyaviy boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi, xususan AQSh, Germaniya va Janubiy Koreya amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu mablag'lar orqali nafaqat muassasalar moliyaviy mustaqilligi ta'minlanadi, balki ilmiy, texnologik va infratuzilmaviy rivojlanishga xizmat qiluvchi barqaror resurslar bazasi yaratiladi.

O'zbekiston sharoitida budjetdan tashqari mablag'lar salohiyati yetarli bo'lishiga qaramay, ularni shakllantirish manbalari tor doirada – asosan kontrakt to'lovlari va pullik xizmatlar bilan cheklanmoqda. Shuningdek, ularning sarflanishi samaradorlik, hisobdorlik va strategik yondashuv tamoyillariga yetarli darajada asoslanmagan. Bu esa mavjud tizimni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda, O'zbekistonda quyidagi yo'nalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- grantlar, donorlik mablag'lari va xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali moliyalashtirish manbalarini kengaytirish;
- budjetdan tashqari mablag'larning sarflanishini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beruvchi raqamli tizimlarni joriy etish;
- har yili samaradorlik va hisobdorlik hisobotlarini e'lon qilish amaliyotini yo'lga qo'yish;
- mustaqil audit va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Ushbu yondashuvlar orqali O'zbekiston budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar tizimini xalqaro andozalarga moslashtirgan holda samarali boshqaruvga erishishi mumkin. Natijada moliyaviy barqarorlik ta'minlanadi, xizmatlar sifati oshadi va jamoatchilik ishonchi mustahkamlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. World Bank. Extra-Budgetary Funds: Management and Oversight. – Washington D.C., 2021. – 146 p.
2. OECD. Managing Public Money: Government Financial Management Systems. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 182 p.
3. USAspending.gov. Federal spending database. – Accessed: 2024. – [Elektron resurs]. URL: <https://www.usaspending.gov>
4. Bundesministerium der Finanzen. Sondervermögen des Bundes: Bericht 2023. – Berlin, 2023. – 87 S.
5. Korean Ministry of Economy and Finance. Digital Budget and Accounting System (dBrain): Overview and Reforms. – Seoul, 2023. – 72 p.
6. Ostonqulov A. Oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'larini boshqarishning tashkiliy-huquqiy asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 96 b.
7. Qodirova M. Sog'liqni saqlash tizimida pullik xizmatlar va byudjetdan tashqari mablag'lar iqtisodiyoti. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2022. – №3. – B. 45–53.

8. Бурков В.Н. Механизмы управления внебюджетными средствами в сфере государственного сектора. – Москва: Финансы и статистика, 2020. – 224 с.
9. Transparenzportal.de – Offene Finanzdaten der Bundesländer. – Zugriff: 2024. – [Электронный ресурс]. URL: <https://www.transparenzportal.de>.
10. Open Fiscal Data Portal. Ministry of Economy and Finance of Korea. – Accessed: 2024. – [Электронный ресурс]. URL: <https://www.fiscaldata.go.kr>.